



CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

***2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot***




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **59 057,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **10,8 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi **13 971,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **154,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **45 086,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,0**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **5 283,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **111,2 %**) tashkil etdi.


O'sish sur'atlari, foizda



Asosiy tarkib, foizda



Tarkibiy qism, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm

Dehqon bozori

2 371,7
44,9 %

Chorva bozori

2 911,5
55,1 %

Jami
Uyushmagan savdo
5 283,2



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **59 057,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **110,8** % ni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **76,3** % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **23,7** % yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 23,7 % ulush bilan 13 995,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

1 Toshkent sh.
13 995,5

2 Toshkent
6 491,5

3 Samarqand
4 827,7

4 Farg'ona
4 654,0

5 Andijon
4 387,9

6 Qashqadaryo
3 719,7

7 Surxondaryo
3 669,9

8 Namangan
3 561,4

9 Buxoro
3 521,8

10 Xorazm
2 633,4

11 Jizzax
2 428,7

12 Navoiy
2 260,7

13 Qoraqalpog'iston
Respublikasi
1 975,5

14 Sirdaryo
929,5

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Sirdaryo viloyati 1,6 % ulush bilan 929,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan respublikaning Jizzax (122,0 %), Toshkent (120,7 %), Xorazm (116,6 %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax viloyatida qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	59 057,3	110,8	13 971,2	154,2	45 086,1	102,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 975,5	111,0	205,8	174,8	1 769,7	106,5
<i>viloyatlar :</i>						
Andijon	4 387,9	109,8	579,9	140,0	3 808,1	106,4
Buxoro	3 521,8	113,3	617,7	170,2	2 904,1	105,8
Jizzax	2 428,7	122,0	562,2	288,3	1 866,5	103,9
Qashqadaryo	3 719,7	104,7	302,6	118,3	3 417,1	103,6
Navoiy	2 260,7	113,0	426,4	174,9	1 834,3	104,4
Namangan	3 561,4	107,9	339,0	142,9	3 222,4	105,2
Samarqand	4 827,7	107,3	1 185,2	120,8	3 642,5	103,5
Surxondaryo	3 669,9	105,7	264,5	147,5	3 405,4	103,4
Sirdaryo	929,5	103,5	65,8	86,9	863,7	105,1
Toshkent	6 491,5	120,7	2 071,2	312,4	4 420,3	93,8
Farg'ona	4 654,0	106,6	610,8	159,0	4 043,3	101,5
Xorazm	2 633,4	116,6	624,4	223,1	2 009,0	101,5
Toshkent sh.	13 995,5	110,4	6 115,7	131,1	7 879,9	98,3




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Yirik korxonalar



**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **54,2 %** ga o'sdi va **13 971,2 mlrd.** so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **23,7 %** ulushiga to'g'ri keldi.

Eng past ulushga ega hududlar, % da



Yirik korxonalar




**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **45 086,1 mlrd.** so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **2,0 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **76,3 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sirdaryo (**92,9 %**), Surxondaryo (**92,8 %**), Qashqadaryo (**91,9 %**), Namangan (**90,5 %**) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **23,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (**43,7 %**), Toshkent (**31,9 %**), Samarqand (**24,6 %**) va Xorazm (**23,7 %**) viloyatlarida kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar





AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-mart oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 670,5** ming so'mni (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **8,6 %** ga oshdi) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi	1 670,5	108,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	1 012,0	109,5
Andijon	1 345,6	107,6
Buxoro	1 778,7	111,6
Jizzax	1 678,4	119,2
Qashqadaryo	1 089,0	102,4
Navoiy	2 181,8	110,8
Namangan	1 212,2	105,5
Samarqand	1 194,8	105,0
Surxondaryo	1 334,3	103,2
Sirdaryo	1 055,3	101,4
Toshkent	2 202,7	122,1
Farg'ona	1 191,8	104,5
Xorazm	1 366,2	114,7
Toshkent sh.	4 874,6	104,0

Eng yuqori hajmga ega hududlar



Eng past hajmga ega hududlar




* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Toshkent shahri (**4 874,6** ming so'm), Toshkent (**2 202,7** ming so'm) va Navoiy (**2 181,8** ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Asosiy tarkib, foizda



Savdo hajmi va ulushi



Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 5 283,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 11,2% ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 2 371,7 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 16,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 2 911,5 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 7,8 %) tashkil etdi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	5 283,2	111,2	2 371,7	116,6	2 911,5	107,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	203,6	111,8	96,6	116,5	107,0	108,6
viloyatlar:						
Andijon	533,6	123,7	173,9	124,3	359,6	123,9
Buxoro	339,0	122,7	164,1	115,4	174,9	131,4
Jizzax	405,1	113,4	164,7	164,9	240,4	93,9
Qashqadaryo	489,9	114,0	250,4	110,2	239,5	119,3
Navoiy	116,6	119,7	63,6	119,7	53,0	120,6
Namangan	447,4	110,8	180,5	125,1	266,9	103,2
Samarqand	466,8	112,0	112,1	110,4	354,7	113,0
Surxondaryo	659,4	108,8	254,3	131,1	405,1	98,7
Sirdaryo	89,2	101,0	37,8	141,2	51,5	83,9
Toshkent	448,8	106,3	177,4	104,5	271,4	108,0
Farg'ona	329,5	101,4	170,2	104,4	159,3	98,8
Xorazm	376,6	105,4	174,4	103,0	202,1	108,2
Toshkent sh.	377,6	105,5	351,6	109,7	25,9	71,8

2022- yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **2 371,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **2 911,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI


2022- yilning yanvar-mart oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **2 371,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**1 048,8 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.



Tuzlamalar



Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari



Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)



Tovuq go'shti



Non va non mahsulotlari



Tuxum



Don mahsulotlari (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)



Ziravorlar



Sut va sut mahsulotlari




Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-mart oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **2 911,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **2 250,6** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **551,0** mlrd. so'mni, otlar **95,2** mlrd. so'mni, parrandalar **14,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **3,1 %** ni tashkil etib, **1 857,4** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **15,5 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **74,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	1 857,4	115,5	468,3	160,5	1 389,1	105,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	49,4	104,1	0,1	12,8	49,3	106,1
viloyatlar:						
Andijon	65,2	106,2	0,0	-	65,2	106,2
Buxoro	114,2	110,0	13,9	133,8	100,3	107,3
Jizzax	39,6	103,2	0,0	-	39,6	103,2
Qashqadaryo	94,1	102,2	4,4	120,5	89,7	101,4
Navoiy	58,5	108,0	11,1	123,8	47,4	104,8
Namangan	59,2	104,7	7,7	146,4	51,5	100,5
Samarqand	128,4	111,6	41,6	126,1	86,8	105,8
Surxondaryo	67,8	100,4	2,1	32,0	65,7	107,8
Sirdaryo	23,7	107,6	0,0	-	23,7	107,6
Toshkent	171,7	107,3	46,0	137,6	125,7	99,3
Farg'ona	100,7	108,5	3,3	69,5	97,4	110,6
Xorazm	31,7	104,6	1,0	27,0	30,7	115,9
Toshkent sh.	853,2	131,2	337,1	192,4	516,1	108,6



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2021- yil

2022- yil


 Nodavlat mulk

 Davlat mulki

2021- yilning yanvar-mart oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **3,9 %** dan **0,7 %** ga kamaygan.


Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **1 857,4** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **115,5 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **1 844,9** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**99,3 %**) hamda **12,5** mlrd. so'm (**0,67 %**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	1 857,4	100,0	1 844,9	99,33	12,5	0,67
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	49,4	2,7	49,3	99,74	0,1	0,26
Andijon	65,2	3,5	65,2	100,0	-	-
Buxoro	114,2	6,1	114,1	99,93	0,1	0,07
Jizzax	39,6	2,1	39,4	99,51	0,2	0,49
Qashqadaryo	94,1	5,1	94,1	100,0	-	-
Navoiy	58,5	3,1	57,4	98,19	1,1	1,81
Namangan	59,2	3,2	59,0	99,62	0,2	0,38
Samarqand	128,4	6,9	128,0	99,73	0,3	0,27
Surxondaryo	67,8	3,7	67,8	100,0	-	-
Sirdaryo	23,7	1,3	23,7	100,0	-	-
Toshkent	171,7	9,2	171,4	99,81	0,3	0,19
Farg'ona	100,7	5,4	100,7	100,0	-	-
Xorazm	31,7	1,7	31,7	100,0	-	-
Toshkent sh.	853,2	45,9	843,1	98,81	10,1	1,19




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **32 706,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **14,9** % ga o'sdi. Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **22 112,8** mlrd.so'mni tashkil qilgan, bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan **10,8** % ga oshgan. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo-dagi ulushi **67,6** % ni tashkil qilgan.



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da





ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	32 706,2	114,9	10 593,5	124,4	22 112,8	110,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	410,4	98,3	48,6	56,0	361,9	109,4
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	753,7	83,3	73,7	25,7	680,0	110,0
Buxoro	1 383,3	150,0	621,5	246,9	761,8	113,6
Jizzax	544,7	106,0	85,5	103,7	459,2	106,4
Qashqadaryo	677,4	96,1	68,9	45,3	608,5	110,1
Navoiy	391,7	108,7	72,8	139,1	318,8	103,6
Namangan	1 243,2	110,5	142,2	67,2	1 101,0	120,5
Samarqand	1 594,0	92,7	407,0	60,0	1 187,0	114,0
Surxondaryo	745,5	107,2	122,8	97,6	622,7	109,3
Sirdaryo	508,7	102,9	36,3	108,7	472,4	102,5
Toshkent	2 314,9	103,6	678,2	99,1	1 636,8	105,6
Farg'ona	1 897,3	105,0	87,2	56,1	1 810,2	109,6
Xorazm	679,2	109,2	116,4	110,1	562,8	109,0
Toshkent sh.	19 562,3	122,8	8 032,5	143,4	11 529,8	111,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Buxoro (**246,9 %**), Navoiy (**139,1 %**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**143,4 %**) kuzatildi.




MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,1 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **32 706,2** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **32 685,5** mlrd. so'mni va davlat tasarrufga ega korxonalar tomonidan **20,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hali ham Toshkent shahrida (**0,10 %**), Navoiy (**0,18 %**) va Andijon (**0,04 %**) viloyatlarida saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi
Тел.: 71-202-80-42 (43)